



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA KODEKSIDA NIKOH TUSHUNCHASI VA  
UNING HUQUQIY ASOSLARI**

**Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi**

**Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikoh tushunchasi, uning huquqiy mohiyati va asoslari keng yoritilgan. Nikoh institutining huquqiy belgilari, nikoh tuzish shartlari, nikohning huquqiy oqibatlari hamda uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, nikohni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va sud amaliyotining o‘rni ochib berilgan. Maqola oila huquqi sohasida bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nikoh, oila huquqi, Oila kodeksi, er-xotin huquqlari, nikoh shartlari, oila instituti, huquqiy munosabatlar.

**ÖZBEKİSTAN CUMHURİYETİ AİLE KANUNU’NDA EVLİLİK KAVRAMI VE HUKUKİ  
DAYANAKLARI**

**Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi**

**Termez Devlet Üniversitesi**

**Hukuk Fakültesi 1. sınıf öğrencisi**

**ÖZET (ANNOTASYON)**

Bu makalede Özbekistan Cumhuriyeti Aile Kanunu’nda evlilik kavramı, onun hukuki niteliği ve dayanakları kapsamlı bir şekilde ele alınmıştır. Evlilik kurumunun hukuki özellikleri, evliliğin kurulma şartları, evliliğin hukuki sonuçları ile toplum ve devlet hayatındaki önemi analiz edilmiştir. Ayrıca evliliği düzenleyen normatif-hukuki düzenlemeler ve yargı uygulamalarının rolü ortaya konulmuştur. Makale, aile hukuku alanındaki bilgilerin derinleştirilmesine yöneliktir.

**Anahtar Kelimeler:** Evlilik, aile hukuku, Aile Kanunu, eşlerin hakları, evlilik şartları, aile kurumu, hukuki ilişkiler.

**ПОНЯТИЕ БРАКА И ЕГО ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ В СЕМЕЙНОМ КОДЕКСЕ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Бўронова Мафтуна Шаймардон қизи**

**Студентка 1 курса юридического факультета**

**Термезский государственный университет**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье всесторонне рассматриваются понятие брака, его правовая сущность и правовые основы в Семейном кодексе Республики Узбекистан. Проанализированы правовые признаки института брака, условия заключения брака, правовые последствия брака, а также его значение в жизни общества и государства. Кроме того, раскрыта роль нормативно-правовых актов и судебной практики в регулировании брачных отношений. Статья направлена на углубление знаний в области семейного права.

**Ключевые слова:** Брак, семейное право, Семейный кодекс, права супругов, условия брака, институт семьи, правовые отношения.

**THE CONCEPT OF MARRIAGE AND ITS LEGAL FOUNDATIONS IN THE FAMILY  
CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi**

**First-year student, Faculty of Law**

**Termez State University**

**ABSTRACT**



This article provides a comprehensive analysis of the concept of marriage, its legal nature, and its legal foundations in the Family Code of the Republic of Uzbekistan. The legal characteristics of the marriage institution, the conditions for concluding a marriage, the legal consequences of marriage, as well as its significance in the life of society and the state, are examined. In addition, the role of normative legal acts and judicial practice in regulating marital relations is highlighted. The article is aimed at deepening knowledge in the field of family law.

**Keywords:** Marriage, family law, Family Code, spouses' rights, marriage conditions, family institution, legal relations.

### KIRISH

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning barqarorligi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila institutining shakllanishi va rivojlanishi nikoh munosabatlari bilan chambarchas bog'liq. Nikoh insonlar o'rtasidagi shaxsiy munosabat bo'lishi bilan birga, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurish jarayonida nikoh munosabatlarini qonuniy asosda tartibga solish muhim vazifalardan biridir. Nikoh orqali er-xotin o'rtasida huquq va majburiyatlar vujudga keladi, bolalar manfaatlari himoya qilinadi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida nikoh munosabatlari hamda shaxsiy munosabatlar, asosan Oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Mazkur kodeks nikoh tushunchasini, uni tuzish tartibini, shartlarini, nikohning huquqiy oqibatlarini hamda bekor qilinish asoslarini belgilab beradi. Ushbu maqolada Oila kodeksida nikoh tushunchasi va uning huquqiy asoslari batafsil tahlil qilinadi.

### ASOSIY QISM

Nikoh tushunchasi va uning huquqiy mohiyati: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasiga ko'ra, nikoh erkak va ayolning o'zaro roziligi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, oila qurishga qaratilgan ittifoq hisoblanadi. Ushbu ta'rif nikohning huquqiy mohiyatini aniq ifodalaydi. Nikoh shaxsiy munosabat sifatida axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi. Shu bilan birga, nikoh huquqiy munosabat bo'lib, u davlat tomonidan tan olinadi va muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Nikohsiz birga yashash, hatto uzoq davom etgan bo'lsa ham, qonuniy nikoh sifatida e'tirof etilmaydi. Ya'ni diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emasdir. (Oila kodeksi, 13-moddasi)

Nikohning huquqiy mohiyati shundaki, u: er-xotin o'rtasida shaxsiy huquq va majburiyatlarni, mulkiy munosabatlarni, ota-onalik huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi. Nikoh institutining oila huquqidagi o'рни: Nikoh instituti oila huquqining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Oila huquqi aynan nikoh munosabatlaridan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Nikoh orqali oila shakllanadi va davlat tomonidan himoya qilinadi.

Nikoh institutining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

oilaning barqarorligini ta'minlash;

er-xotin va bolalar huquqlarini himoya qilish;

jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash;

demografik barqarorlikni ta'minlashlardan iborat hisoblanadi.

Nikohlanuvchi shaxslar, oila kodeksida belgilangan normalar va qoidalarga muvofiq holda nikoh tuzishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, nikoh, erkak va ayol o'rtasida tuziladi hamda nikohlanuvchi shaxslarning ikkisi ham 18-yoshga to'lgan, aqliraso shaxslar bo'lishi kerak, (ayrim hollarda, yani bola tug'ilishi, homiladorlik kabi holatlarda, nikohga kiruvchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ruyhatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin). Hamda nikoh tomonlarning ixtiyoriy va ongli roziligiga ko'ra tuziladi. Majburlash orqali tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi. Nikohning davlat



ro'yxatidan o'tkazilishi, yani nikoh faqat FHDYO organlarida ro'yxatga olinganidan keyin huquqiy kuchga ega bo'ladi. Nikohlanuvchi shaxslar FHDYO organiga ariza topshirganidan 1 oy o'tgandan keyin ro'yxatga olinadi, 1 oy muhlat ular bir birini tushunishlari hamda o'rganishlari uchun beriladi. Alohida hollar(homiladorlikda, bola tug'ilishi hamda tomonlarning birining kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza bergan kuni tuzilishi mumkin. Nikoh tuzilishi bilan er-xotin o'rtasida qonuniy huquq va majburiyatlar yuzaga keladi, hamda huquqiy oqibatlarga ega bo'ladi.

Oila kodeksida nikoh tuzish bilan birgalikda, nikohga monelik qiluvchi holatlar ham mavjud bo'lib, quyidagi holatlar nikohga monelik qiladi:

Tomonlarning biri boshqa nikohda bo'lishi;

Tomonlarning yaqin qarindoshligi holatlar;

muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan nikoh;

farzandlikka oluvchi va farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida nikoh.(oila kodeksi,16-moddasi). Bu cheklovlar axloqiy, tibbiy va huquqiy asoslarga ega.

Nikohning huquqiy asoslari bu, nikoh munosabatlari quyidagi huquqiy manbalarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish to'g'risidagi qonun hujjatlari, hamda sud amaliyoti. Mazkur hujjatlar nikoh munosabatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Nikoh tuzilishi bilan er-xotin o'rtasida, nikohning huquqiy oqibatlari vujudga keladi, va bular: o'zaro yordam va hurmat majburiyati, umumiy mulk huquqi, bolalarni tarbiyalash majburiyati, moddiy ta'minot majburiyatlari vujudga keladi. Bu huquqiy oqibatlar oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, nikoh O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida muhim huquqiy institut sifatida mustahkamlangan. Nikohning huquqiy asoslari er-xotin, bolalar va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, hamda oilalarning farovon hayot kechirishlarini taminlashga qaratilgan. Nikoh institutining qonuniy tartibga solinishi oila mustahkamligi, jamiyat barqarorligi va huquqiy davlat qurilishining muhim sharti hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish to'g'risidagi Qonuni.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini. – Toshkent, 2017.
6. Ismoilov B., Abdullayev A. Oila huquqi (darslik). – Toshkent: TDYU, 2021.
7. Xudoyberganov X. Oila huquqi asoslari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2020.
8. Rustamov F. Oila huquqida nikoh va uning huquqiy oqibatlari. – Toshkent, 2019.
9. Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining nikoh va oila masalalariga oid qarorlari.
11. Yuldashev U. Oila huquqiy munosabatlari. – Toshkent, 2022.
12. Boboqulov B. Nikoh institutining huquqiy muammolari // Yuridik fanlar jurnali, 2020.
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy hujjatlari va sharhlari.
14. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.
15. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.